

O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHLATLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-5-14>

G‘.B. Shoumarov

*psixologiya fanlari doktori, akademik,
“Profi University” rektori*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistonda gender tenglik madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Gender tushunchasining mazmuni, tarixiy shakllanishi va erkak hamda ayol shaxsiga xos individual-psixologik xususiyatlar yoritilgan. Jamiyatda mavjud gender stereotiplari, oilaviy munosabatlar, zo‘ravonlik, ajralishlar va suitsid holatlarining gender tenglik bilan bog‘liqligi ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Ta‘lim tizimidagi rahbarlik lavozimlarida ayollarning ishtiroki hududlar kesimida statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, gender tenglikni rivojlantirishda etnopsixologik omillar, milliy qadriyatlar va ta‘lim muassasalarining o‘rni asoslab berilgan hamda amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: *gender, gender tenglik, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, gender stereotiplari, oila, ta‘lim tizimi, ayollar rahbarligi.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социально-психологические аспекты развития культуры гендерного равенства в Узбекистане. Раскрывается содержание понятия «гендер», его историческая эволюция, а также индивидуально-психологические особенности личности мужчины и женщины. Рассматриваются гендерные стереотипы, семейные отношения, насилие, рост разводов и суицидальных проявлений в контексте гендерного неравенства. На основе статистических данных проведён анализ представленности женщин на руководящих должностях в системе образования в региональном разрезе. Обоснована значимость этнопсихологических факторов, национальных ценностей и роли образовательных учреждений в формировании культуры гендерного равенства, предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: *гендер, гендерное равенство, социальная психология, этнопсихология, гендерные стереотипы, семья, система образования, женское лидерство.*

ABSTRACT

This article examines the social and psychological aspects of developing a culture of gender equality in Uzbekistan. The concept of gender, its historical evolution, and the individual psychological characteristics of men and women are analyzed. The study addresses gender stereotypes, family relations, violence, increasing divorce rates, and suicide as interconnected issues related to gender inequality. Based on statistical data, women’s representation in leadership positions within the education system is analyzed across regions. The article substantiates the importance of ethnopsychological factors, national values, and the role of educational institutions in promoting gender equality culture and offers practical recommendations.

Keywords: *gender, gender equality, social psychology, ethnopsychology, gender stereotypes, family, education system, women’s leadership.*

Gender “gender” ingliz tilidan olingan bo‘lib – nasl, urug‘, nasab, shajara, aymok, zot ma’nolarini anglatadi. Rus tilida esa “gender” deganda odatda jins tushuniladi. Ingliz tilida “gender” tushunchasining 2 xil ko‘rinishi bor. Birida gender (“sex”) biologik jins sifatida idrok etilsa, ikkinchi ifodasi (“gender”)da sotsiopol, biologik omil asosida ijtimoiy shakllangan shaxs (erkak shaxsi yoki ayol shaxsi) tushuniladi. Shu sababli ham “gender” deyilganida jinsi biologik belgilangan, shaxsiy sifatlari shu asosda shakllangan erkak yoki ayol shaxsi tushuniladi.

Tarixan jinsga bo‘lgan munosabat turli xalqlarda har xil bo‘lgan. Masalan, Yaponiyada XX asr boshlarigacha o‘g‘il bolalarning ma’lum qismini chaqaloqlik davrida o‘ldirish odati bo‘lgan. Sababi – qiz bolani voyaga yetganda sotish mumkin bo‘lardi, o‘g‘il bolalarning esa xaridori topilmas edi.

Kanada eskimoslari esa yangi tug‘ilgan chaqaloq qizlarni tog‘ga tashlab kelishar edi. Ularning tushunchasiga ko‘ra oilada imkon boricha erkak jinsidagilar soni ko‘proq bo‘lishi kerak bo‘lgan. Shunda oila mustahkam, o‘zga oilalar oldida ustunlikka erishadi va boshqalarga qaram bo‘lmaydi, deb tushunilgan.

Qadimgi, islomdan oldingi arab jamiyatida ayrim qabilalar orasida qiz bolani tiriklay ko‘mish kabi odat mavjud bo‘lgan. Bu holat asosan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, qashshoqlikdan qo‘rqish, urush va asirlik xavfi, shuningdek, qabilaviy sha’n va or-nomus tushunchalarining noto‘g‘ri talqini bilan bog‘liq edi. Ayrim qabilalar qiz bolani oila uchun og‘ir yuk, deb hisoblagan yoki kelajakda u orqali sha’nga putur yetadi, deb o‘ylagan.

Ushbu fojiali odat Qur’oni karimda keskin qoralanadi. Xususan, “Takvir” surasi, 8–9-oyatlarda: “Tiriklay ko‘milgan qizchadan qaysi gunohi uchun o‘ldirilgani so‘ralgan vaqtda...” deb zikr qilinadi. Bu oyatlar orqali mazkur amal insoniylikka mutlaqo zid ekani ochiq-oydin bayon etilgan. Islom dini kelishi bilan bu kabi g‘ayriinsoniy urf-odatlar qat’iy taqiqlandi. Erkak va ayol haqidagi stereotiplar, ustanovkalar bugungi kunda ham keng tarqalgan.

Erkak shaxsida kuchliroq ifodalangan individual-psixologik xususiyatlar:

Tashabbuskorlik, faollik, mustaqillik, agressivlik, ustunlikka intilish, avantiyurizm, avtoritarlik, yetakchilik–liderlikka intilish, faoliyat, harakat va fikrlashda ratsionallik, o‘z “Men”ini tasdiqlashga intilishning kuchliligi, egotsentrizm, egoizm, qat’iylik, bir so‘zlilik, mardlik, jasurlik kabi sifatlar xos. Erkaklar ko‘pincha voqea va hodisalarga analogik fikrlash, aql-idrok asosida obyektiv baho beradilar.

Ayol shaxsida kuchliroq ifodalangan individual-psixologik xususiyatlar:

Yumshoqlik, konformizm, o‘z ko‘rinishi, kiyimi, shaxsiga ko‘proq e’tibor berishi, emotsionallik, hissiy ta’sirchanlik, ko‘p hollarda hissiyotning aql-idrok va tafakkurdan ustunligi, did, mehribonlik, mehr va hissiyotning kuchliligi, yig‘lashga moyillik, voqea, hodisa va shaxslar faoliyatini ko‘proq hissiyot, emotsiya asosida talqin etish, baholash; erkaklarga nisbatan kuchliroq ifodalangan altruizm, verbal intellektning yuqoriligi, kirishimlilik, bolajonlik, o‘zgalarni tanqid qilishga moyillik, stressga bardoshlilik, bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq faoliyatni olib borish

qobiliyati, sevgi-muhabbat hislarining erkaklarga nisbatan uzoqroq davom etishi, o‘z ota-onalari hamda farzandlariga bo‘lgan mehrning kuchliligi (erkaklarga nisbatan ustunligi) ayollar shaxsida yorqin ifodalanadi.

Dolzarbligi. Gender tenglik muammosining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odamzod yuzaga kelgandan boshlab turli formatsiyalarda turlicha talqin va ifoda etilganligini ko‘rish mumkin.

Barcha muqaddas kitoblarda, shu jumladan, eng so‘nggi va mukammal hisoblangan — Qur‘oni Karimda ham ayol va erkak mavqei, huquq hamda vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan. Hatto psixologik jihatdan erkak va ayol shaxsidagi nozik tomonlarga ilmiy jihatdan to‘g‘ri ta‘rif berilib, ularni hisobga olish tavsiya etilgan. Shu bilan birga, qaysi davlat, mamlakat, xalq va formatiya bo‘lmasin, gender tenglik o‘ta dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrning tasdig‘i sifatida bugungi kunda XXI asrning II choragi boshlangan 2026 yilda Afg‘onistonda ayollarga nisbatan munosabat, siyosatni gender tengsizlikka ideal namuna sifatida keltirishimiz mumkin.

Afg‘onistondan har tomonlama osmon bilan yercha farq qilgan O‘zbekistonda ham gender tenglik ayrim masalalar bo‘yicha o‘z aktualligini yo‘qotmagan. Buning dalili sifatida ajralishlar sonining so‘nggi 10 yil ichida keskin oshganligini (2024 yilga nisbatan 2025 yilda ajralishlar soni 1,8 mingga oshgan), o‘z joniga qasd qilish asosida har yili 2 mingdan ortiq odamlarning bevaqt hayotdan ketishi, shularning 50 % dan ortig‘ini yoshi 16–35 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etishi, suitsidni keltirib chiqaruvchi sabab va omillar orasida oila va oiladagi shaxslararo munosabatlar barqaror ravishda birinchi o‘rinda ekanligini ko‘rsatish mumkin.

JSST (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti — “VOZ”) bergan rasmiy ma‘lumotga ko‘ra, suitsid asosida olamdan o‘tganlarning dunyoda jinsi bo‘yicha nisbati o‘rtacha 3:1 ni tashkil etadi, ya‘ni 3 nafar o‘lgan erkakka 1 nafar vafot etgan ayol to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda esa ayrim viloyatlardagi 2:1, ayrim hududlardagi 1:1, ayrim tumanlardagi 1:2 ko‘rsatkichlar mamlakatimizda ayollarning o‘limi dunyodagi o‘rtacha raqamlardan ko‘pligini ko‘rsatmoqda.

Oiladagi zo‘ravonliklar (jismoniy, jinsiy, psixologik, iqtisodiy) ham gender tenglik madaniyatining yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Shaxsning surunkali ravishda stress holatida bo‘lishi 20 ga yaqin nomdagi kasalliklar kelib chiqishi yoki mavjud xastaliklarning o‘tkirlashishi, ayrim hollarda o‘lim holatiga ham olib kelishi mumkin (insult, infarkt va boshqalar).

Yuqoridagilarning barchasi gender tenglik madaniyati muammosi dolzarbligini ko‘rsatadi.

Gender tenglikning quyidagi turlari mavjud:

1. Huquqiy tenglik. O‘zbekistonda bu borada muammo deyarli yo‘q. Huquqiy imkoniyatlar va mas‘uliyat jihatidan jinslar orasida tenglik mavjud. Shu bilan birga, gender tengsizlik singari hali nihoyasiga yetkazilmagan huquqiy masalalar ham bor. Masalan, oilaviy (nikoh) ajrimlarda bolalarning kim bilan qolishi (otasi yoki onasi bilanmi?) kabi huquqiy jihatlar hali to‘liq o‘z yechimini topmagan.

2. Iqtisodiy tenglik, ya'ni bir xil mehnat uchun erkak va ayollarda ish haqi orasidagi tafovut. Bu asosan ayrim boshqa davlatlarga xos bo'lib, O'zbekistonga uncha taalluqli emas. Shu bilan birga, O'zbekistonda bu turdagi muammolar boshqa ko'rinishlarda mavjudligini ham ta'kidlash zarur.

3. Siyosiy tenglik, ya'ni yuqori lavozimlarga tayinlashda erkaklar ustuvorligi. Afsuski, bu muammo bizda ham mavjud. Biz ayollar salohiyatidan yetarli darajada foydalana olmayapmiz.

4. Ijtimoiy-madaniy tenglik. OTM bitiruvchilari ichida erkaklar sonining ko'pligi, oilada ayollar va erkaklar mavqei orasidagi tafovut, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat tizimlari tashkilotlarida, ba'zan mehnat sharoitlarida muammolar ko'zga tashlanishi mumkin. Masalan, ta'lim olishda O'zbekistonda hech qanday gender tengsizlik, diskriminatsiya yo'q. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yili O'zbekiston OTM bitiruvchilarining 38,2 % ini ayollar, 61,8 % ini erkaklar tashkil qilgan.

Iqtisodiy sohada ishlayotganlarning 90 % ini erkaklar tashkil etib, ular O'zbekistonda eng katta oylik maosh olishadi.

Ta'lim (MMTV tizimidagi ta'lim muassasalari)da faoliyat olib borayotganlarning 73,4 % ini, deyarli $\frac{3}{4}$ qismini (744 555 nafar) ayollar tashkil etadi. Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida ham ayollar soni ancha — 79,9 %, va bu tizimlar oylik maoshi eng past bo'lgan tizimlardir. Buni ochiq emas, balki latent (yashirin) gender tengsizlik, deyishga haqlimiz.

Homilador ayolni imkon boricha tashkilot rahbarlarining 90 % i (garchi rahbarning o'zi ayol bo'lsa ham) ishga olmaslikka harakat qiladi. Bu ham gender tengsizlikka misol bo'la oladi.

Shuni hisobga olishimiz kerakki, har doim ham va barcha davlatlarda ham Indira Gandi, Margaret Tetcher, Angela Merkel kabi rahbarlar shakllanavermaydi. Rivojlangan Sharq davlati hisoblangan Yaponiyada tarixda birinchi marta mamlakatni ayol Bosh vazir — Sanae Takaichi boshqarmoqda. Muvaffaqiyatli boshqaruv uchun shaxs juda kuchli va tajribali bo'lishi shart. Aks holda, uning rahbarlik umri uzoq bo'lmaydi. Etnopsixologiya bu yerda katta rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, ayrim vazirliklarda o'rta va quyi darajadagi rahbarlar orasida gender tenglik tahlil qilinganda ma'muriy tur bo'yicha ayollar yetarli foizni tashkil qilgani ko'zga tashlanadi (1- va 2-jadvallar). Shu bilan birga, turli hududlarda ko'rsatkichlar turlicha. Ushbu jadval ma'lumotlarida ikki xil tendensiyaning guvohi bo'lamiz: hudud markazdan uzoqlashgan sari (Sirdaryo — 27 %, Surxondaryo — 18,6 %, Qashqadaryo — 23,8 %, Jizzax — 17,1 %) rahbar ayollar foizi kamayadi, markazga yaqinlashgan sari esa (Toshkent shahri — 84,4 %, Toshkent viloyati — 44,3 %, Andijon viloyati — 49,2 %) rahbar ayollar foizi oshib boradi.

1-jadval

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan jami xodimlar soni haqida MA'LUMOT				
№	Tashkilot nomi	Jami ishlayotgan xodimlar soni	Shundan ayollar soni	Foizda
JAMI:		1014712	744555	73,4
1	Vazirlik markaziy apparati	347	84	24,2
2	Ixtisoslashgan maktablar agentligi va uning tizimidagi tashkilot va muassasalar	14500	7888	54,4
3	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari va uning tizimidagi tashkilotlar	10210	5192	50,9
4	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning tizimidagi mahorat markazlari	1627	856	52,6
5	Vazirlik tasarrufidagi boshqa tashkilotlar	1801	772	42,9
6	Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	1042	299	28,7
7	Tuman, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari	13010	4812	37,0
8	Umumta'lim muassasalari	708688	494716	69,8
9	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	248939	218374	87,7
10	Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari	14548	11562	79,5

2-jadval

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi boshqarma boshliqlari hamda mudirlar haqida ma'lumot (2026 yil)

№	Xodimlar	Jami ishlayotgan xodimlar soni	Shundan, Ayollar	Foizda, (%)
1	Boshqarma boshliqlari	14	5	35,7
2	Tuman, shahar mudirlari	208	56	26,9

3-jadval

**Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlari haqida maʼlumot (2025-
2026 oʻquv yili)**

№	Hududlar	Faoliyat koʻrsatayotgan direktorlar	Shundan ayollar	Foizda, (%)
JAMI:		9813	3241	33
1	Toshkent shahri	294	248	84,4
2	Andijon viloyati	750	369	49,2
3	Toshkent viloyati	835	370	44,3
4	Fargʻona viloyati	959	335	34,9
5	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	693	236	34
6	Namangan viloyati	715	242	33,8
7	Xorazm viloyati	519	170	32,8
8	Samarqand viloyati	1081	353	32,7
9	Navoiy viloyati	375	121	32,3
10	Buxoro viloyati	537	149	27,7
11	Sirdaryo viloyati	285	77	27
12	Qashqadaryo viloyati	1225	292	23,8
13	Surxondaryo viloyati	989	184	18,6
14	Jizzax viloyati	556	95	17,1

Ushbu holatni fikrimizcha, 2 ta omil bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, muayyan viloyatlardagi oilalar oʻzga hududlarga nisbatan koʻp bolali boʻlgani sababli ayollar oʻz kasb faoliyatida mavjud rahbarlik potensialini toʻliq ifoda etish imkoniyati cheklanadi.

Ikkinchidan, ayrim hududlar aholisining maʼlum foizi (Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida) ijtimoiy-iqtisodiy saviyasi nisbatan quyi boʻlgan mamlakat ichidagi migrantlardan iborat. Ularda rahbarlik lavozimlarga daʼvogarlik qiladigan psixogenetik potensial ham yuqori emas.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlari lavozimlarida faoliyat olib borayotgan ayollar soni boʻyicha soʻnggi 4 oʻrinni Sirdaryo viloyati 27%, Qashqadaryo viloyati 23,8%, Surxondaryo viloyati 18,6% va Jizzax viloyati 17,1% tashkil qiladi (3-jadval).

Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha direktor oʻrinbosari lavozimida faoliyat olib borayotgan ayollar soni boʻyicha quyi koʻrsatkichlar Sirdaryo viloyatida 32,2%, Surxondaryo viloyatida 21,8% ni, Jizzax viloyatida 16,5% ni tashkil etdi (4-jadval).

Xuddi shunday holat direktorning o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha ayol o‘rinbosarlarida ham kuzatildi. 14 hududdan so‘nggi 3 o‘rinni Sirdaryo viloyati 28,3%, Jizzax viloyati 23% va Surxondaryo viloyati 18,1% egalladi (5-jadval).

Shu bilan birga, ijobiy ko‘rsatkichlar va e‘tirof sifatida rahbarlik lavozimlarida ayollar yetarli bo‘lgan hududlar ham mavjud.

Maktab direktorlari bo‘yicha o‘rinbosarlar, % hisobida	1. Toshkent shahri 2. Andijon viloyati 3. Toshkent viloyati 4. Farg‘ona viloyati 5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi	84,4% 49,2% 44,3% 34,9% 34%
Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlar, % hisobida	1. Toshkent shahri 2. Toshkent viloyati 3. Xorazm viloyati 4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi 5. Andijon viloyati	83,4% 62,1% 56,1% 51,4% 50%
O‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlar, % hisobida	1. Toshkent shahri 2. Toshkent viloyati 3. Andijon viloyati 4. Farg‘ona viloyati 5. Xorazm viloyati	85,3% 64,7% 62,1% 58,9% 50,5%

4-jadval

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari direktorlarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari haqida ma‘lumot (2025-2026-o‘quv yili)

№	Hududlar	Jami o‘rinbosar soni	Ulardan ayollar soni	Foizda, (%)
JAMI:		14491	6382	44
1	Toshkent shahri	670	559	83,4
2	Toshkent viloyati	1163	722	62,1
3	Xorazm viloyati	815	457	56,1
4	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	992	510	51,4
5	Andijon viloyati	1218	608	50
6	Farg‘ona viloyati	1471	725	49,3
7	Buxoro viloyati	616	290	47,1
8	Navoiy viloyati	494	228	46,2

9	Namangan viloyati	1096	453	41,3
10	Qashqadaryo viloyati	1693	641	38
11	Samarqand viloyati	1822	650	35,7
12	Sirdaryo viloyati	432	139	32,2
13	Surxondaryo viloyati	1287	281	21,8
14	Jizzax viloyati	722	119	16,5

5-jadval

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalari direktorlarining oʻquv-tarbiyaviy ishlar boʻyicha oʻrinbosarlari haqida maʼlumot (2025-2026-oʻquv yili)

№	Hududlar	Jami oʻrinbosar soni	Ulardan ayollar soni	Foizda, (%)
JAMI:		14761	6852	46,4
1	Toshkent shahri	695	593	85,3
2	Toshkent viloyati	1197	774	64,7
3	Andijon viloyati	1215	754	62,1
4	Fargʻona viloyati	1480	871	58,9
5	Xorazm viloyati	833	421	50,5
6	Navoiy viloyati	500	246	49,2
7	Buxoro viloyati	627	298	47,5
8	Namangan viloyati	1133	522	46,1
9	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	1004	428	42,6
10	Qashqadaryo viloyati	1694	695	41
11	Samarqand viloyati	1860	714	38,4
12	Sirdaryo viloyati	427	121	28,3
13	Jizzax viloyati	718	165	23
14	Surxondaryo viloyati	1378	250	18,1

Shu oʻrinda yana bir muhim maʼlumotni taʼkidlash joizki, 95 yoʻnalishda 300 dan ortiq lavozimlarga ayollarni ishga olish taqiqlangan. Bunda ogʻir jismoniy mehnat, zararli yoki xavfli ish sharoitlari (kimyoviy moddalar, radiatsiya, yuqori harorat), yer osti ishlari (konlar, shaxtalar), tungi smenalar va yuqori xatarli ish

jarayonlari hisobga olingan edi. Vaqt o'tishi bilan ushbu taqiqlar gender tengligi prinsiplariga zid, ayollarning kasb tanlash huquqini cheklovchi, zamonaviy texnologiyalar rivoji sharoitida asossiz ekani tanqid qilindi. Chunki zamonaviy ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasi yaxshilandi, avtomatlashtirish kuchaydi, mehnat sharoitlari yengillashdi. Hozirgi tendensiyaga ko'ra so'nggi yillarda ko'plab davlatlar taqiqlangan kasblar ro'yxatini qisqartirdi yoki bekor qildi, ayollarga mehnat sharoiti va salomatlik talablari asosida, jinsga qarab emas, individual ruxsat berish amaliyotiga o'tmoqda.

Cheklov asosida ayollar salomatligi, ayolni ortiqcha og'ir va zararli mehnat turi bilan qiynamaslik yotadi. Shu kasblarda ishlashga transgenderlar olinadimi yoki yo'qmi? Ertaga bir “ayol-transgender” taqiqlangan ish, lavozimlarda ishlayman, deb qat'iy murojaat qiladi. Kim va qaysi hujjat asosida bu masala huquqiy tomondan to'g'ri hal qilinadi? 2023 yildagi hujjatda bu masala tilga olinmagan. Bu ham gender tenglikni absolyut deb tushunmaslik, tengsizlik ham hayotda insonlar salomatligi, tinchligi, oila mustahkamligi, urf-odatlarini saqlanishi, millatni etnopsixologik xususiyatlarini huquqiy tomondan hisobga olish lozimligini ko'rsatadi. Har bir qilingan ishimiz shaxs, oila, jamiyat, millat, davlat manfaatiga zarar yetkazmasligi, aksincha ularni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi zarur. Bunda ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya fani yutuqlari va xalq psixologik savodxonligining ahamiyati benihoya kattadir.

Gender tenglik nuqtayi nazaridan, bugungi kunda ajralishda erkak ayolini uy-joy bilan ta'minlashi, farzand moddiy ta'minoti zarur va qonuniyligi har bir konkret oilada aniq ko'rib chiqilishi lozim. Albatta, qurbi yetsa, er farzandlari uchun hamma sharoitni qilib berishi zarur, ammo o'zini ham eplay olmaydigan odam ushbu qonun asosida nima qilishi kerak? Bunday hollarda “ingliz huquqi” tamoyili asosida ish ko'rilishi va qaror qabul qilinishi lozim. Umuman olganda, Yangi O'zbekiston sharoitida, yangi jamiyat qurayotgan o'tish davrimizda yuqoridagi muammolar muqarrar ravishda yuzaga keladigan tabiiy holdir. Buni chetlab o'tishning iloji yo'q. Ushbu muammolarni Davlat, hukumat va konkret vazirliklar rahbarlari ham yaxshi bilishadi va imkon qadar qisqa muddatda bartaraf etishga, xalq hayotini, ijtimoiy-iqtisodiy holat, vaziyatini yanada yaxshilashga barcha kuchlarini safarbar qilishmoqda. Yuqorida bayon qilinganlar asosida quyidagilarga e'tibor berishimiz lozim:

1. Rivojlangan mamlakatlardagi gender tenglik tajribasini mahalliy ijtimoiy-madaniy sharoitlarni inobatga olmasdan to'liq qo'llash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Har bir xalqning o'z rivojlanish yo'li, tamoyillari va eng muhimi, mahalliy-etnopsixologik xususiyatlari bor. Ularni hisobga olmaslik keyin tuzatish og'ir bo'ladigan asoratlarga olib kelishi mumkin.

2. Gender tenglik madaniyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalarining ahamiyati, tutgan o'rni beqiyosdir. Gender tenglik madaniyati asoslari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdan boshlanishi va shu mavzu bo'yicha maxsus original “O'g'il va qizlar muloqot madaniyati” dasturini ishlab chiqish

hamda pedagogik eksperiment tarzida sinovdan o'tkazib, natijalari asosida respublika miqyosida joriy qilinishi kerak.

3. Gender tenglik ko'nikmalari o'quvchilarda uzluksiz ravishda boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda tarbiyaviy soatlar, turli tarbiyaviy tadbirlarda rivojlantirib borilishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilari uchun “Oila psixologiyasi” kursida ushbu tushuncha va ko'nikmalar takomillashtirilgani maqsadga muvofiqdir.

4. Gender tenglikda avvalo, ta'lim muassasasi pedagog xodimlari shaxsiy namuna bo'lishlari shart.

5. Gender tenglikni yoshlarda shakllantirish oilaviy qadriyatlar, milliy an'analarimiz va etnopsixologik xususiyatlarimizga salbiy ta'sir etmasligi choralarini ko'rishimiz zarur.

6. Ayollar son jihatdan ustunlik qiluvchi, insoniyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohalarida faoliyat yuritayotgan pedagog hamda tibbiyot xodimlarining oylik ish haqlarini sezilarli darajada oshirish ayollar o'rtasida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan Hukumat siyosatining muhim va samarali qadamlaridan biri bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoumarov G.B. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2018.
2. G'oziev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
3. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Abdullaeva M.M. Gender psixologiyasi asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
5. Bem S.L. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – Yale University Press, 1993.
6. Eagly A.H., Wood W. Social Role Theory of Sex Differences. – Psychology of Gender. – New York: Guilford Press, 2012.
7. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. – Stanford University Press, 2005.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
10. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy ma'lumotlari. – 2026 yil.
11. UNESCO. Gender Equality in Education: Global Monitoring Report. – Paris, 2022.
12. World Economic Forum. Global Gender Gap Report. – Geneva, 2023.